

Date: 27th July-2026

**PEDAGOGIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA RAQAMLI
FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK
SHART-SHAROITLARI**

Avazxon Xaydarov

Toshkentdagi Vebster universiteti

ORCID: 0009-0002-4528-7351

Annotatsiya. Maqolada pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida raqamli fuqarolik madaniyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari nazariy asoslangan. Tadqiqot 2020–2025-yillarda nashr etilgan to'rtta milliy va bitta xorijiy manbaning kontent-tahlili, qiyosiy tahlili, konseptual sintezi hamda pedagogik modellashtirishga tayangan. Raqamli fuqarolik madaniyati axboriy-media savodxonlik, huquqiy-etik mas'uliyat, kiberxavfsizlik va maxfiylik, raqamli muloqot va hamkorlik, fuqarolik ishtiroki hamda refleksiv o'zini boshqarish birligi sifatida aniqlashtirilgan. Mazmuniy integratsiya, faoliyatga asoslangan ta'lim, etik-huquqiy va xavfsiz muhit, hamkorlikdagi raqamli ishtirok, refleksiya va monitoring asosiy pedagogik shart-sharoitlar sifatida tavsiflangan.

Kalit so'zlar: raqamli fuqarolik, pedagogika ta'limi, media savodxonlik, raqamli etika, kiberxavfsizlik, fuqarolik ishtiroki, refleksiya.

KIRISH

Raqamli platformalar ta'lim olish, muloqot qilish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish va jamoatchilik masalalariga munosabat bildirishning kundalik makoniga aylangan sharoitda fuqarolik xulqi real va virtual muhitning uzviy birligida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli oliy ta'limda talabalarni faqat raqamli vositalardan foydalanishga o'rgatish yetarli emas. Ular axborotni tanqidiy baholashi, huquq va majburiyatlarini anglashi, shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishi, onlayn muloqotda axloqiy me'yorlarga rioya etishi hamda raqamli ishtirokining ijtimoiy oqibatlarini tushunishi lozim.

Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarini mazkur jarayonda ikki tomonlama maqomga ega. Ular, bir tomondan, raqamli muhitning faol foydalanuvchisi va fuqarosi bo'lsa, ikkinchi tomondan, kelgusida o'quvchilarning raqamli ijtimoiylashuvi, media xulqi va xavfsizligini pedagogik jihatdan boshqaradigan mutaxassis sifatida shakllanadi. Demak, bo'lajak pedagogning shaxsiy raqamli madaniyati uning kelgusi tarbiyaviy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, mazkur sifat kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy natijasi sifatida qaralishi zarur.

Mahalliy tadqiqotlarda talabalarda media savodxonlikni oshirish axborotni ongli qabul qilish, media xabarlarining mazmuni va maqsadini farqlash, ishonchli manbalarni tanlash bilan bog'langan [1]. Raqamli kompetensiyani rivojlantirishga doir metodik yondashuvlarda esa texnik ko'nikmalar bilan bir qatorda pedagogik dizayn, mualliflik huquqi, mediasavodxonlik, raqamli xavfsizlik va etikadan xabardorlik zarurligi ko'rsatiladi



Date: 27th July-2026

[2]. Ushbu qarashlar raqamli fuqarolik madaniyatining bilim va amaliy harakat bilan cheklanmasdan, me'yoriy hamda qadriyatli mazmunga ega ekanini anglatadi.

Raqamli kommunikatsiya muhitida yoshlarning axloqiy madaniyati o'zgaruvchan va kontekstga bog'liq tarzda shakllanishi, virtual makonda mas'uliyat chegaralari xiralashishi hamda tezkor axborot oqimi refleksiv baholashni susaytirishi mumkin [3]. Shuning uchun pedagogika ta'limida raqamli fuqarolikni faqat taqiqlar, texnik xavfsizlik qoidalari yoki bir martalik targ'ibot orqali shakllantirish metodik jihatdan yetarli natija bermaydi. Talaba raqamli vaziyatni tahlil qilishi, qarorining axloqiy va huquqiy oqibatini baholashi, o'z xulqini qayta ko'rib chiqishi uchun muntazam faoliyat tajribasiga ega bo'lishi kerak.

Axboriy-analitik kompetentlikning axborotni izlash, saralash, tekshirish, tahlil qilish, qadriyatli baholash va refleksiv umumlashtirishni birlashtiruvchi tuzilmasi raqamli fuqarolik madaniyatining kognitiv asosini aniqlashtirish imkonini beradi [4]. Xorijiy tadqiqotda esa onlayn axborotni baholashga doir aniq strategiyalarni maqsadli o'rgatish talabalarning manba muallifini tekshirish, dalilni tanqidiy ko'rib chiqish va ishonchli axborotni topish faoliyatini yaxshilashi ko'rsatilgan [5]. Bu holat raqamli fuqarolikni shakllantirish jarayonida ochiq internet muhitida bajariladigan tekshiruv topshiriqlari alohida pedagogik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Mavjud yondashuvlarda media savodxonlik, raqamli kompetensiya, axloqiy madaniyat, axboriy-analitik faoliyat va onlayn manbalarni baholash masalalari alohida yo'nalishlarda yoritilgan. Biroq ularni pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligi doirasida yagona mazmun, faoliyat, hamkorlik va baholash mexanizmiga birlashtiruvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida raqamli fuqarolik madaniyatini shakllantirishning tarkibiy mazmuni va pedagogik shart-sharoitlarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot nazariy-tahliliy va empirik bo'lmagan xususiyatga ega. Manbalarni tanlashda ularning 2020-yildan keyin nashr qilingani, pedagogika talabalari yoki yoshlarning raqamli faoliyatiga aloqadorligi, media savodxonlik, raqamli kompetensiya, axloqiy mas'uliyat, axboriy-analitik faoliyat yoki fuqarolik onlayn tafakkurini yoritishi asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Shu asosda to'rtta o'zbekistonlik olimning hamda bitta xorijiy tadqiqotchining ishlari konseptual tahlilga jalb etildi [1–5].

Kontent-tahlil jarayonida manbalardan maqsad, mazmun, raqamli faoliyat turi, axloqiy-huquqiy talab, xavfsizlik omili, pedagogik metod, refleksiya va kutiladigan natijaga oid birliklar ajratildi. Qiyosiy tahlil vositasida o'xshash kategoriyalar birlashtirildi, mazmuniy farqlar esa raqamli fuqarolik madaniyatining chegaralarini aniqlash uchun qo'llandi. Konseptual sintez natijasida mazkur madaniyatning tarkibiy modeli hamda uni shakllantirishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar ishlab chiqildi.

Pedagogik modellashirishda uchta metodologik qoida asos qilib olindi. Birinchi qoida raqamli fuqarolikning bilim, qadriyat va real xulq birligini talab etishi bilan bog'liq.



Date: 27th July-2026



Ikkinchi qoida bo'lajak pedagogni tayyor axborotni qabul qiluvchi emas, balki manbani tekshiradigan, axloqiy qaror chiqaradigan va jamoaviy raqamli faoliyatda ishtirok etadigan subyekt sifatida talqin qiladi. Uchinchi qoida esa natijani faqat bilim testi bilan emas, talabani amaliy mahsuli, xavfsiz xulqi va refleksiv baholashi orqali aniqlash zaruratini nazarda tutadi.

Tahlilning ishonchliligi turli yo'nalishdagi manbalardan olingan xulosalarni o'zaro solishtirish, taklif etilgan komponent va shart-sharoitlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni tekshirish hamda ularni pedagogik faoliyatning real vazifalari bilan muvofiqlashtirish orqali ta'minlandi. Tadqiqot statistik umumlashtirishni ko'zlamaydi; undagi natijalar keyingi empirik tekshiruv uchun nazariy va metodik asos sifatida qaraladi.

NATIJALAR


Nazariy tahlil asosida pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarining raqamli fuqarolik madaniyati raqamli muhitda axborotni tanqidiy baholash, huquq va majburiyatlarga rioya qilish, shaxsiy hamda boshqalarga tegishli ma'lumotlarni himoya qilish, axloqiy muloqot yuritish, jamoatchilik manfaatiga yo'naltirilgan raqamli ishtirokni amalga oshirish va o'z faoliyatini refleksiv boshqarishga imkon beruvchi bilim, ko'nikma, qadriyat hamda barqaror xulq-atvor birligi sifatida aniqlashtirildi. Ushbu talqin texnik savodxonlikni fuqarolik mas'uliyati va pedagogik pozitsiya bilan birlashtiradi.

Raqamli fuqarolik madaniyatining birinchi tarkibiy qismi axboriy-media savodxonlik bo'lib, u axborot ehtiyojini aniqlash, qidiruvni maqsadli tashkil etish, manbani muallifi va maqsadini tekshirish, fakti fikrdan farqlash, dalillarni qiyoslash hamda manipulyativ kontentni aniqlashni qamrab oladi [1; 5]. Ikkinchi tarkibiy qism huquqiy-etik mas'uliyatdir. Unda mualliflik huquqi, akademik halollik, netiket, inson qadr-qimmati, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik va raqamli xatti-harakat oqibatiga javob berish kabi me'yorlar mujassamlashadi [2; 3].

Uchinchi tarkibiy qism kiberxavfsizlik va maxfiylikni anglatib, kuchli autentifikatsiya, shaxsiy ma'lumotlarni boshqarish, zararli havolalarni aniqlash, raqamli izni nazorat qilish va kiberzo'ravonlik vaziyatiga oqilona munosabat bildirish ko'nikmalarini birlashtiradi. To'rtinchi tarkibiy qism raqamli muloqot va hamkorlik bo'lib, dalilga tayangan muloqot, o'zgacha fikrga hurmat, onlayn konfliktini konstruktiv boshqarish hamda jamoaviy raqamli mahsul yaratishni nazarda tutadi. Beshinchi tarkibiy qism fuqarolik ishtiroki va kontent yaratish orqali talabani ijtimoiy ahamiyatli masalalarda mas'uliyatli pozitsiya bildirishini, foydali axborot mahsuli yaratishini va raqamli hamjamiyatga konstruktiv hissa qo'shishini ifodalaydi.

Oltinchi tarkibiy qism refleksiv o'zini boshqarishdir. Mazkur komponent talabani raqamli vaqtini, axborot iste'moli odatlarini, platformadagi xulqini va yaratgan kontentning oqibatlarini baholashi, xatolarini tan olishi hamda shaxsiy rivojlanish strategiyasini belgilashini ta'minlaydi. Refleksiya qolgan komponentlardan keyingi alohida bosqich emas, balki ularning sifatini muntazam qayta ko'rib chiqadigan ichki boshqaruv mexanizmi hisoblanadi [3; 4].

Date: 27th July-2026



1-rasm. Raqamli fuqarolik madaniyatining tarkibiy modeli

Modeldagi tarkibiy qismlar bir-birini to'ldiradi: ishonchli axborotni aniqlash etik qaror uchun asos yaratadi, etik pozitsiya xavfsizlik va muloqot xulqini boshqaradi, hamkorlik hamda fuqarolik ishtiroki esa bilim va qadriyatlarni real faoliyatga aylantiradi. Refleksiv o'zini boshqarish ushbu faoliyatning barqarorligini ta'minlaydi.

Aniqlashtirilgan modelni ta'lim jarayonida ro'yobga chiqarish uchun beshta o'zaro bog'liq pedagogik shart-sharoit zarur. Birinchi shart-sharoit raqamli fuqarolik mazmunini pedagogik fanlar, mediasavodxonlik, tarbiyaviy ishlar metodikasi va pedagogik amaliyotga fanlararo tarzda integratsiya qilishdir. Bunda bir xil mezonlar turli fanlarda takror va murakkablashib borishi, talaba raqamli vaziyatga faqat texnologik emas, pedagogik va tarbiyaviy nuqtayi nazardan yondashishi lozim.

Ikkinchi shart-sharoit faoliyatga asoslangan ta'limni tashkil etishdan iborat. Muammoli media vaziyatlari, fakt-checking, lateral o'qish, dalillar xaritasi, qarama-qarshi manbalarni qiyoslash va pedagogik qaror ishlab chiqish kabi topshiriqlar talabaning ochiq internet muhitida mustaqil harakat qilishini ta'minlaydi [5]. Mazkur topshiriqlar tayyor qoidani takrorlashga emas, tekshiruv jarayonini tushuntirish va xulosani dalillar bilan himoya qilishga yo'naltirilishi zarur.

Uchinchi shart-sharoit etik-huquqiy va xavfsiz raqamli muhitni yaratishdir. Raqamli iz, maxfiylik, mualliflik huquqi, akademik halollik, onlayn muloqot etikasi va kiberxavfsizlik alohida nazariy mavzu sifatida emas, real ssenariylar hamda etik dilemmalar orqali o'rganilganda xulqiy ahamiyat kasb etadi [2; 3]. O'qituvchi talabaga tayyor hukm bermasdan, qaror variantlarining shaxs, guruh va ta'lim muhitiga ta'sirini tahlil qilishga yordam berishi lozim.

To'rtinchi shart-sharoit subyekt-subyekt munosabatlariga asoslangan hamkorlik va raqamli ishtirokdir. Talabalar jamoaviy media mahsul, ijtimoiy loyiha, onlayn muhokama va tengdoshlar ekspertizasi orqali o'z fikrini dalillash, boshqalar huquqini hurmat qilish, vazifani bo'lishish va umumiy natija uchun javobgarlikni o'rganadi. Beshinchi shart-sharoit refleksiya va monitoringni muntazam tashkil etish bo'lib, raqamli portfel, mezonli rubrika, o'zini baholash, refleksiv kundalik va rivojlanish xaritasidan foydalanishni nazarda tutadi [4].



1-jadval

Raqamli fuqarolik madaniyatini shakllantirish shart-sharoitlari

Pedagogik shart-sharoit	Amalga oshirish mexanizmi	Kutiladigan natija
Mazmuniy integratsiya	Pedagogika, mediasavodxonlik, tarbiyaviy ishlar va amaliyotda umumiy mezonli topshiriqlar	Bilim, qadriyat va xulqning uzviyligi
Faoliyatga asoslangan ta'lim	Fakt-cheking, lateral o'qish, dalillar xaritasi va muammoli media vaziyatlari	Ishonchli manba tanlash va asosli qaror
Etik-huquqiy va xavfsiz muhit	Raqamli iz, maxfiylik, mualliflik huquqi, netiket va kiberxavfsizlik keyslarini tahlil qilish	Mas'uliyatli va xavfsiz raqamli xulq
Hamkorlik va ishtirok	Jamoaviy raqamli loyiha, onlayn muhokama, tengdoshlar ekspertizasi	Konstruktiv muloqot va fuqarolik faolligi
Refleksiya va monitoring	Raqamli portfel, rubrika, o'zini baholash va rivojlanish xaritasi	Barqaror o'zini boshqarish va o'sish

Jadvalda keltirilgan shart-sharoitlar alohida chora-tadbirlar sifatida emas, yagona didaktik tizim sifatida ishlaydi. Mazmuniy integratsiya faoliyat uchun yo'nalish beradi, muammoli topshiriqlar bilimni harakatga aylantiradi, etik-huquqiy muhit qarorning me'yoriy chegarasini belgilaydi, hamkorlik ijtimoiy tajribani boyitadi, refleksiya esa natijani barqaror xulqqa aylantiradi.

MUHOKAMA

Taklif etilgan yondashuv media savodxonlikni raqamli fuqarolik madaniyatining zarur, biroq yagona bo'lmagan tarkibiy qismi sifatida ko'radi. Maqsudov va Qosimova talabalarning media xabarlarini anglash hamda baholashga tayyorligini pedagogik zarurat sifatida asoslaydi [1]. Mazkur maqoladagi model bu yo'nalishni huquqiy-etik mas'uliyat, xavfsizlik, fuqarolik ishtiroki va refleksiv boshqaruv bilan kengaytiradi. Natijada talaba axborotni faqat tekshiradigan emas, uni tarqatish va undan foydalanish oqibatiga javob bera oladigan subyekt sifatida talqin qilinadi.


Sayidovanning o'quv-uslubiy yondashuvida raqamli kompetensiya pedagogik dizayn, mediasavodxonlik, mualliflik huquqi, xavfsizlik va raqamli etika bilan bog'lanadi [2]. Bu qarash texnologik vositalarning o'zi ta'limiy natijani kafolatlamasligini ko'rsatadi. Raqamli platforma talabani manbani tekshirishi, hamkorlik qilishi, mahsul yaratishi va teskari aloqa olishi uchun didaktik vazifa bilan bog'langandagina raqamli fuqarolikni rivojlantiruvchi muhitga aylanadi.

Sharifova raqamli kommunikatsiya yoshlar axloqiy tajribasini tezkor, vaziyatga bog'liq va ba'zan fragmentar shaklga keltirishi mumkinligini ko'rsatadi [3]. Shu sababli etik-huquqiy mavzularni deklarativ bayon etish o'rniga, noaniq va ziddiyatli vaziyatlarni muhokama qilish maqsadga muvofiq. Masalan, anonim profil orqali fikr bildirish, sun'iy intellekt yordamida kontent tayyorlash, shaxsiy suratni roziliksiz tarqatish yoki ishonchsiz

Date: 27th July-2026

xabarni guruhga yuborish kabi vaziyatlarda talaba qarorning qonuniyligi, axloqiyliigi va pedagogik oqibatini birgalikda tahlil qilishi kerak.

Madaliyev taklif etgan axboriy-analitik komponentlar tizimi manbani izlashdan reflektiv baholashgacha bo'lgan ichki faoliyat mantiqini beradi [4]. McGrewning fuqarolik onlayn tafakkuriga oid tadqiqoti esa manba baholash strategiyalari maxsus va izchil o'rgatilganda natija yaxshilanishini ko'rsatadi [5]. Shundan kelib chiqib, pedagogika talabalar uchun raqamli fuqarolik mashg'ulotlari qoidalarni eslab qolishdan ko'ra, ochiq internetda tekshirish jarayonini ovoz chiqarib tushuntirish, qaysi manbaga nima sababdan ishonilganini asoslash va xulosani qayta ko'rib chiqishga yo'naltirilishi lozim.



2-rasm. Pedagogik shart-sharoitlarning funksional zanjiri

Mazkur funksional zanjir raqamli fuqarolik madaniyatini bir martalik kurs natijasi emas, takrorlanuvchi pedagogik sikl sifatida tashkil etishni talab qiladi. Dastlab talabning raqamli xulqi va axborot bilan ishlash odatlari diagnostika qilinadi, keyin muammoli vaziyat asosida tekshiruv va etik baholash amalga oshiriladi, hamkorlikdagi raqamli mahsul yaratiladi, yakunda esa natija portfel va refleksiya orqali qayta ko'rib chiqiladi. Keyingi topshiriq avvalgi refleksiya natijasiga tayangan holda murakkablashtiriladi.

Ushbu yondashuvni joriy etish alohida fan ochish bilan cheklanmasligi lozim. Manba tekshirish va media etikasi mediasavodxonlik fanida, raqamli ijtimoiylashuv umumiy pedagogikada, onlayn xulq tarbiyaviy ishlar metodikasida, xavfsiz raqamli topshiriqlar esa pedagogik amaliyotda o'zaro muvofiqlashtirilishi zarur. Bunday integratsiya shaxsiy raqamli tajriba bilan kasbiy-metodik tayyorgarlikni bog'laydi.

Raqamli fuqarolik madaniyatini baholash test bilan cheklanmasligi kerak. Manba tekshiruv protokoli, etik vaziyat bo'yicha qaror, jamoaviy raqamli mahsul, xavfsizlik chek-listi, tengdoshlar fikri va reflektiv xulosa uyg'un qo'llanadi. Mezonlar axborot ishonchliligi, huquqiy-axloqiy oqibatni anglash, konstruktiv muloqot, maxfiylik va xatoni tuzatishga tayyorlikni qamrab oladi.

XULOSA

Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida raqamli fuqarolik madaniyatini shakllantirish texnik ko'nikmadan kengroq pedagogik vazifadir. U axboriy-media

Date: 27th July-2026

savodxonlik, huquqiy-etik mas'uliyat, kiberxavfsizlik, raqamli muloqot va hamkorlik, fuqarolik ishtiroki hamda refleksiv o'zini boshqarish birligida namoyon bo'ladi.

Mazkur sifatni barqaror shakllantirish uchun raqamli fuqarolik mazmunini fanlar va amaliyotga integratsiya qilish, muammoli media vaziyatlari hamda manba tekshirishga tayangan faoliyatni tashkil etish, etik-huquqiy va xavfsiz muhit yaratish, hamkorlikdagi ijtimoiy ahamiyatli raqamli ishtirok, refleksiya va monitoringni yo'lga qo'yish zarur. Ushbu shartlar bilimni mas'uliyatli xulq va kasbiy pozitsiyaga aylantiradi.

Taklif etilgan yondashuv pedagogika ta'lim dasturlarini takomillashtirish, mediasavodxonlikni kasbiy vaziyatlar bilan boyitish, amaliyotga raqamli xavfsizlik va etik muloqot topshiriqlarini kiritish, baholashni portfel hamda refleksiya bilan to'ldirishga metodik asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maqsudov U.Q., Qosimova G.E. Talabalarda media savodxonlikni oshirishning pedagogik asoslari // Oriental Renaissance (ORIENS). – 2022. – 2(11). – B. 988–995.
2. Sayidova N.S. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar: o'quv-uslubiy majmua. – Buxoro: BuxDU, 2024. – 103 b.
3. Sharifova M.M. Raqamli kommunikatsiya muhitida yoshlar axloqiy madaniyatining shakllanishi // Oriental Renaissance (ORIENS). – 2025. – 5(10). – B. 295–305.
4. Madaliyev B.E. Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari // Tadbirkorlik va pedagogika ilmiy-uslubiy jurnali. – 2025. – 4(2). – B. 245–258.
5. McGrew S. Learning to evaluate: An intervention in civic online reasoning // Computers & Education. – 2020. – Vol. 145. – Article 103711. – DOI: 10.1016/j.compedu.2019.103711.